

Kuz palitrasi*



Kuzda barglar yorqin va rang-barang – **sariq, qizil, olovrang** tusga kiradi.



Bugun siz kuzning iliq palitrasi va o'z tasavvuringizdan foydalanib **barglar** chizasiz.



Rasm chizish bosqichlari:

1. Qog'oz varag'ini **4 ta teng qismga** ajrating. Turli shakldagi barglarni oling va ularning konturini ehtiyotkorlik bilan chizing.
2. Barglar ichiga tomirchalarni qo'shing va barg **konturini aniqlashtiring**.
3. **Badiiy fon** yarating. Bargchalar atrofiga bir nechta chiziqni shunday chizingki, fon mozaikaga o'xshab bo'lak-bo'lak ko'rinishda chiqsin.
4. Avval **fonni**, keyin **barglarni** kuzgi chiroyli ranglarga **bo'yang**. Barglarning konturini to'q rangli qalam yoki flomaster bilan aylantirib chizib chiqing.

***palitra** – bo'yoqlar jamlanmasi hamda ranglarning go'zal uyg'unligi

